

**AYOLLARDA GORMONAL DISBALANS (GIPERPROLAKTINEMIYA)  
FONIDA KARIES VA STOMATITNING KLINIK KECHISHI VA  
STATISTIK BAHOLANISHI.**

*EMU universiteti - Mo'minova O'Sh.*

**Kirish.** Gormonal muvozanatning buzilishi, xususan prolaktin gormonining fiziologik darajadan yuqoriligi (giperprolaktinemiya) ayol organizmida ko'plab tizimli o'zgarishlarga olib keladi. Shu jumladan, og'iz bo'shlig'i shilliq qavati va tish to'qimalarining holati sezilarli darajada yomonlashadi.

**Tadqiqot maqsadi:** giperprolaktinemiya bilan og'rigan ayollarda karies va stomatitning tarqalishi va ularning kechish xususiyatlari tahlil qilish.

**Materiallar va usullar:** 2024–2025 yillar davomida Yashnobod tumani "Denta Lor" xususiy klinikasiga murojaat qilgan 60 nafar ayol bemor (18–45 yosh) orasida klinik tekshiruvlar o'tkazildi. Ayollar 2 guruhga bo'lindi: **1-guruhi (asosiy):** 30 nafar giperprolaktinemiya tashxisi qo'yilgan bemorlar. **2-guruhi (nazorat):** 30 nafar sog'lom, gormonal muvozanatga ega ayollar.

**Tadqiqot metodlari:** Klinik stomatologik tekshiruv (karies va stomatit belgilarini baholash), laborator tahlillar (prolaktin darajasi, og'iz suyuqligi pH-i), statistika tahlili (x-kvadrat testi, o'rtacha qiymatlar solishtirildi).

### Natijalar

#### 1. Karies holati bo'yicha taqqoslash:

| Ko'rsatkichlar                     | Giperprolaktinemiyali (n=30) | Nazorat guruhi (n=30) |
|------------------------------------|------------------------------|-----------------------|
| Kariesli tishlar soni (o'rtacha)   | $4,2 \pm 1,3$ tish           | $2,1 \pm 0,9$ tish    |
| Tish emalining demineralizatsiyasi | 70%                          | 33%                   |
| Og'iz suyuqligi pH darajasi        | $5,6 \pm 0,3$                | $6,7 \pm 0,2$         |

#### 2. Stomatit holatlari:

| Ko'rsatkichlar                  | Giperprolaktinemiyali (n=30) | Nazorat guruhi (n=30)       |
|---------------------------------|------------------------------|-----------------------------|
| Kataral stomatit                | 40%                          | 10%                         |
| Aftoz stomatit                  | 20%                          | 3%                          |
| Og'iz qurishi shikoyati         | 65%                          | 18%                         |
| Immunoglobulin A (IgA) darajasi | Past (o'rtacha 83 mg/dl)     | Normal (o'rtacha 160 mg/dl) |

**Tahlil:** Statistik tahlil natijalariga ko'ra, giperprolaktinemiya bilan og'rigan ayollarda karies va stomatitning uchrashi sog'lomlarga nisbatan **ikki barobar** ko'p. Shuningdek, bu guruhda og'iz suyuqligi pH darajasi past, IgA darajasi esa sezilarli

darajada kamaygan bo‘lib, bu himoya mexanizmlarining zaiflashganidan dalolat beradi.

**Xulosa:** Giperprolaktinemiya bilan kechuvchi gormonal disbalans og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarining, xususan karies va stomatitning klinik ko‘rinishlarini kuchaytiradi. Prolaktin darajasi yuqori bo‘lgan bemorlar muntazam stomatologik nazoratdan o‘tishi, profilaktika choralariga qat’iy rioya qilishi hamda asosiy endokrin kasallikni davolashi zarur.